EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Sunnatova Gulruh Sherali qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi
gulruhsunnatova217@gmail.com
ORCID:https://orcid.org/0009-0005-6996-4558

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik muammo sifatida mazmun mohiyati yoritilgan. Ekologik madaniyat tushunchasining nazariy mazmuni, ekologik ta’lim, ekologik ong, ekologik kompetensiya, ekologik ma’suliyatli munosabat va amaliy faoliyat bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Maktabgacha ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy asoslar, “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturidagi ekologik yo‘nalishlar hamda mavjud pedagogik tadqiqotlar tahlil etilgan. Maktabgacha ta’lim tizimida yurtimiz, MDH davlatlari va Xorij mamlakatlarida ekologik madaniyat mavzusida tadqiqot olib borgan olimlarning ishlari o‘rganilgan hamda tahlil qilingan. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni shakllantirishning amaldagi holati, ekologik madaniyatni tashkil etish shakllari, ekologik bilimlarning qanday faoliyatlar bilan hamkorlikda olib borilishini o‘rganish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi pedagoglarga so‘rovnomalar tashkil etilgan. Hamda ushbu so‘rovnoma natijalari muhokama va tahlili, xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: *ekologiya, ekologik madaniyat, maktabgacha ta’lim, maktabgacha yoshdagi bola, tarbiylanuvchi, ekologik kompetensiya, ekologik ta’lim va tarbiya, vizual texnologiya, so‘rovnoma, respondent, tarbiyachi, pedagog, maktabgacha pedgogika.*

ФОРМИРОВАНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

В данной статье освещается сущность формирования экологической культуры у детей дошкольного возраста как педагогическая проблема. Анализируется теоретическое содержание концепции экологической культуры, её связь с экологическим воспитанием, экологической осведомлённостью, экологической компетентностью, экологически ответственным отношением и практической деятельностью. Рассматривается нормативно-правовая база развития экологического образования в системе дошкольного образования, экологические направления в национальной учебной программе «Первый шаг», а также существующие педагогические исследования. Изучаются и анализируются работы учёных, проводивших исследования по теме экологической культуры в системе дошкольного образования в нашей стране, странах СНГ и зарубежных странах. Для изучения современного состояния формирования экологической культуры в дошкольных образовательных организациях, форм организации экологической культуры и видов деятельности, посредством которых осуществляется экологическое знание, были организованы анкеты для педагогов дошкольных образовательных организаций. Также обсуждаются и анализируются результаты анкетирования, даются выводы и рекомендации.

Ключевые слова: *экология, экологическая культура, дошкольное образование, ребёнок дошкольного возраста, ученик, экологическая компетентность, экологическое образование и воспитание, визуальные технологии, анкета, респондент, педагог, учитель, дошкольная педагогика.*

SHAPING ECOLOGICAL CULTURE AS A PEDAGOGICAL ISSUE

This article examines the essence of fostering ecological culture in preschool-age children as a pedagogical issue. It analyzes the theoretical content of the concept of ecological culture and its relationship with ecological education, ecological consciousness, ecological competence, an ecologically responsible attitude, and practical activity. The study reviews the regulatory and legal frameworks for developing ecological education within the preschool system, the ecological components of the "Ilk Qadam" (First Step) national curriculum, and existing pedagogical research. It also examines and analyzes the work of scholars from Uzbekistan, CIS countries, and abroad regarding ecological culture in preschool education. To assess the current state of fostering ecological culture in preschool institutions—including the forms of implementation and the types of activities through which ecological knowledge is imparted—surveys were conducted among preschool educators. Finally, the results of these surveys are discussed and analyzed, and conclusions and recommendations are presented.

Keywords: *ecology, ecological culture, preschool education, preschool-age child, learner, ecological competence, ecological education and upbringing, visual technology, questionnaire, respondent, educator, pedagogue, preschool pedagogy.*

Kirish. Jahon miqyosida ekologik muammolarning ortib borishi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni qayta ko‘rib chiqishni, ekologik ta’limni uzluksiz ta’limning quyi bosqichidan boshlashni taqozo etmoqda. Iqlim o‘zgarishi, suv resurslarining kamayishi, havoning ifloslanishi, chiqindilar hajmining oshib borishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi jarayonlar insonning tabiatga bo‘lgan munosabatini shakllantirish masalasini yanada dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tushunchalar va dunyoqarashini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, metodik – ilmiy ta’minot va axborot – ta’lim muhiti, ekologik ta’lim muammolari yechimini topishga alohida e’tibor qaratilmoqda [14]. Ushbu masalalarni hal etishda maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyatini takomillashtirish, ekologiyaga bo‘lgan munosabatini to‘g‘ri tarbiyalash umumbashariyat kelajagi uchun eng dolzarb muammo sifatida e’tirof etilmoqda.

Respublikamiz miqyosida ko‘rilayotgan chora tadbirlar va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilayotgan har bir faoliyatning zamirida kelajak avlodga atrof muhitni e’zozlashni o‘rgatish, tabiiy resurslarni talofatlarsiz o‘zimizdan keyin qoldirish masalalariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Xususan,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonda aholining ekologik madaniyatini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilishni asosiy maqsad qilib olinganligi [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabr sanasida qabul qilingan PF-199 sonli farmonda “Yashil makon” umummilliy loyihasining hayotga tatbiq etilishi jamiyatda tabiatga munosabatni kuchaytirish bilan birga, ekologik qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishga yo‘naltirilgan ekologik ta’limning pedagogik zaruratini yanada kuchaytiradi [2]. Shu nuqtayi nazardan, ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, ekologik ta’limni uzluksiz ta’limning barcha bosqichlariga tatbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror qabul qilingan uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limning samarali shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish masalari bosh maqsad qilib olingan [3]. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida “Tabiat bilan tanishtirish” alohida faoliyat sifatida berilgani[4], O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 17-iyuldagi 260-son buyrug‘iga ilova qilingan “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturining 3-nashrida “Atrof-muhit va tabiat bilan tanishtirish” bo‘limi o‘rniga “Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari” kiritilgani [5] maqolaning dolzarb ahamiyatini ko‘rsatadi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda ekologik ongini shakllantirish, ekologik ta’lim-tarbiya va uning muammolarini o‘rganish, hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari respublikamiz olimlari tomonidan ishlab chiqilgan. O‘.G.Saidova, Z.Sh.Yazdonov, S.X.Xudaynazarov, F.U.Jumanova, A.R.Malikova, M.R.Xalilova , M.X.Umarova, L.T.Shonosirovalar kabi yurtimiz olimlari o‘z tadqiqotlarida uzluksiz ta’lim tizimida ekologik madaniyatni rivojlantirish tarixi, ekologik madaniyatning zarurati hamda rivojlantirish jarayonlariga qaratilgan.

MDH davlatlari o‘quv jarayonida maktabgacha ta’lim tashkilotlari ekologik madaniyatni shakllantirish hamda bu jarayonning kompetensiyalari, modelini ishlab chiqish ekologik madaniyatni shakllantirish I.D.Zverev, A.N.Zaxlebniy, S.N.Glazachev, I.I.Ligostaev, T.L.Kushnir, V.P.Gorlachev, Sh.S.Roizlarning ishlarida tasdiqlangan.

Xorijiy davlatlarda S.N.Glazachev, V.P.Gorlachev, N.S.Dejnikova, O.N.Kozlova, I.I.Mazur, O.G.Tavstuxa va boshq. ekologik ta’limning asosiy maqsadi sifatida ekologik madaniyatni shakllantirilishini, A.F.Baranov, N.B.Dementev, Yu.I.Mixalchenko, J.B.Moiseeva, O.V.Popova, B.I.Strelets, L.F.Tararina va boshq. Uzluksiz ekologik ta’lim tizimini hamda uning mintaqaviy jihatlarini, S.N.Nikolayeva, P.G.Samurokova, Z.P.Ploxi, R.Levinalar esa maktabgacha yoshdagi bo‘lgan bolalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish tamoyillari, bosqichlari xususida, N.Kondratievaning, S.Nikolayeva, N.Rijova, I.Belavina, N.Naidenskaya, N.Veresov, V.Ashikov, S.Ashikovalar maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik madaniyat darajasini rivojlantirish hamda oshirish maqsadida turli xildagi ekologik dasturlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot nazariy-tahliliy va amaliy xarakterga ega bo‘lib, ekologik madaniyatni rivojlantirish muammosining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilindi, maktabgacha ta’lim

tashkilotlarida ekologik madaniyatni shakllantirish holatini aniqlash maqsadida Buxoro viloyatidagi 32-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog xodimlari o‘rtasida empirik so‘rovnoma tashkil etildi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini tizimli, shaxsga yo‘naltirilgan va integrativ yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni va sohaga doir dissertatsiyalarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida “ekologik madaniyat”, “ekologik tarbiya”, “ekologik ong”, “ekologik kompetensiya” tushunchalari pedagogik jihatdan tahlil qilindi.

Sh.Sodiqovaning “Maktabgacha pedagogika” adabiyotida ekologiyaga doir ushbu atamalarga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Ekologik madaniyat”- alohida shaxsning ibratli axloqiy-ekologik xatti-harakati boshqalarda zavq shavq uyg‘ota olishlik holatini ifodalaydi. Bu atama shaxs va jamiyatning atrof-muhitga munsabat darajasini belgilash uchun qo‘llaniladi [10.182-b].

Ekologik tarbiya-o‘qitish va o‘qish jarayonlarida mavjud ijtimoiy ekologik tajribaning avloddan avlodga o‘tkazilishi [10.184-b].

Ekologik ong-alohida shaxsning amaliy ekologik faoliyati va hatti-harakatini tartibga solib turadi [10.186].

F.R.Qodirovaning “Maktabgacha ta’lim” pedagogikasida esa “Ekologik ta’lim va tarbiya-bu insonni tabiatga qaadam qo‘ygan vaqtidan boshlab, butun hayoti davomida tabiatdan ongli ravishda foydalanishga, psixologik, odob-axloq yuzasidan xalqimizning tabiatga hurmat va e’tibor bilan qaraydigan urf-odatlarini, udumlarini tarbiyalash, tabiiy boyliklarni ko‘paytirish, bog‘-u rog‘lar, gulzorlar tashkil qilishga undashdan, uning qalbida yaxshi xislatlar uyg‘otishdan iboratdir” deb ta’rif berilgan [8, 302-b].

M.Rahmonovaning “Ekologik kompetensiya: mazmuni, tuzilishi, xususiyatlari” nomli ilmiy maqolasida **“**Ekologik kompetensiya-ekologik ong, ekologik fikrlash, ekologik qadriyatlar jamlangan holda ekologik kompotensiyani tashkil qiladi” deb ta’rif berilgan [9, 5b].

Ekologik madaniyat bilan bog‘liq asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati ilmiy adabiyotlar bilan bir qatorda ilmiy tadqiqot ishlarida ham keng yoritilgan bo‘lib, ushbu tadqiqot ishlarida ekologik madaniyatni shakllantirishning samaradorligi va rivojlantirish mazmuni, pedagogik imkoniyatlari, tajriba sinov ishlari, metodik ishlari haqida keng ochib berilgan.

M.R.Xalilovaning “Maktabgacha ta’lim muassasalari katta guruh yoshidagi bolalarda ekologik tushunchalarini shakllantirishning pedagogik asoslari” mavzusidagi pedagogika fanlari nomzodi darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tushunchalar berishning mazmuni, pedagogik xususiyatlari, katta guruh yoshidagi bolalarning ekologik tushunchalarini asosiy yo‘nalishlari, tajriba sinov ishlari hamda metodikalari yoritilgan. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, ekologik tushunchalar berish, oliy ta’lim tizimida, umumiy o‘rta ta’lim tizimida, maktabgacha ta’lim tizimida olib borilsagina ekologik bilim samarali bo‘lishi haqida aytib o‘tgan. Bugungi kunda ekologik madaniyat barchaga juda zarur bo‘lib, ushbu jarayonni o‘rganish, tajriba sinov ishlarini olib borish, turli xildagi qo‘llanma hamda adabiyotlar yaratish orqali katta guruh tarbiyalanuvchilariga ekologik tushuncha berilsa maqsadga muvofiq bo‘lishi ushbu dissertatsiya ishida aytib o‘tilgan [12].

M.H.Umarovaning “Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga ma’suliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi” nomli pedagogika fanlari nomzodi darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida “Atrof muhitga ma’suliyatli” tushunchasi va uning shakllantirishning psixologik-pedagogik mohiyati, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga ma’suliyatli munosabatni shakllantirishning hozirgi holati, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga ma’suliyatli munosabatni shakllantirish mazmuni, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga ma’suliyatli munosabatni shakllantirish metodlari, shakllari va vositalari, tajriba sinov ishlarining mazmuni, tajriba sinov ishlarining natijalari hamda tahlili berilgan. Ushbu dissertatsiya ishida “Atrof-muhitga ma’suliyatli munosabat”, “atrof-muhit”, “ekologiya”, “ekologik madaniyat”, “ekologik ong”, “ekologik ma’rifat”, “ekologik ta’lim”, “ekologik tarbiya” kabi qator tushunchalar keng yoritilgan bo‘lib, ushbu tushunchalarni maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilariga tushuntirish, so‘ngra bolalarga ekologik bilim berish to‘g‘risida aytib o‘tilgan [11].

M.B.Kubayeva “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ekologik tarbiya berishda ta’limning vizual texnologiyalaridan foydalanish metodikasi” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlagan dissertatsiya ishida ekologik ta’lim tarbiyaga quyidagicha ta’rif beradi: “Ekologik ta’lim tarbiya-bu bolaning tabiatga, uning atrof olamga hissiy ijobiy munosabatida, o‘z salomatligi va hayotiga ma’suliyatli munosabatida namoyon bo‘ladigan ekologik madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim, tarbiya va rivojlantirishning uzluksiz jarayonidir” [7].

G.A.Kamilovaning 13.00.08-maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari doktori (DSc) ilmiy

darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik tushunchalarning nazariy va metodik asoslari hamda ekologik tushunchalarni shakllantirishning samaradorligi, tajriba sinov ishlari tahlili, statistikasi, xulosa va tavsiyalar berilgan [6].

T.L.Xurvaliyevaning “Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof - olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish” nomli ilmiy tadqiqot ishida maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof - olam bilan tanishtirishning metodik tizimi ishlab chiqilgan. Tadqiqotda, maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof - olam bilan tanishtirishning pedagogik, psixologik imkoniyatlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni atrof olam bilan tanishtirishga oidga pedagogik jarayonni o‘rganish, samarali omillari va tamoyillari aniqlashtirilgan [13].

Sohaga doir ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik kompetensiyalarni shakllantirishning mazmun mohiyati, pedagogik shart-sharoitlari va uni rivojlantirishga doir turli xil yondashuvlar aytib o‘tilgan. Ushbu nazariy va ilmiy qarashlarni tahlil qilish bilan bir qatorda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni rivojlantirish, shakllantirishning amaldagi holatini o‘rganish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda tadqiqotning amaliy bosqichida Buxoro viloyatidagi 32-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida ekologik madaniyatni rivojlantirishning amaldagi holatini aniqlash maqsadida pedagog xodimlar o‘rtasida so‘rovnoma tashkil etildi. So‘rovnomada 25 nafar pedagog xodim ishtirok etdi. Savollar pedagoglarning ekologik tarbiyani tashkil etish tajribalari, ekologiyaga doir faoliyatlar qanday tashkil etilishi, ekologik madaniyatni tashkil etishda qo‘llaniladigan metodlari hamda sohaga doir adabiyatlar mavjud yoki mavjud emasligi haqida o‘tkazildi. Olingan ma’lumotlar mavjud holatni o‘rganish uchun tahlil qilindi.

Natija va muhokamalar. Tadqiqotning amaliy bosqichida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotidagi ekologik madaniyatni rivojlantirishning amaldagi holati, pedagoglarning ekologik madaniyatni tashkil etish shakllari, ekologik madaniyatni qaysi faoliyatlar bilan uzviy olib borilishi hamda mavjud metodik ehtiyojlarini aniqlash imkonini berdi. So‘rovnomada ishtirok etgan 25 nafar pedagog xodimning javoblari soni va miqdoriy jihatlari tahlil qilinib, har bir savol bo‘yicha javoblarning soni va foiz ulushi aniqlandi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval.

Tarbiyachilar uchun tuzilgan so‘rovnomalar javoblar soni va foiz ulushlarda.

t/r	So‘rovnoma savollari	Javoblar soni	Javoblar foiz ulushi
1	Bolalar bilan ekologik sayohatlar tashkil etiladimi?	Ha-15 Yo‘q-0 Ba’zan-10	Ha-60% Yo‘q-0% Ba’zan-40%
2	MTTda bolalarning ekologik madaniyatini rivojlantirish uchun qanday turdagi metod va o‘yinlardan foydalanasiz?	An’anaviy metodlar-16 Innovatsion va kreativ metodlar-7 Qo‘llamayman-2	An’anaviy metodlar-64% Innovatsion va kreativ metodlar-28% Qo‘llamayman-8%
3	Bolalarning ekologik madaniyatini qaysi faoliyatlar bilan 2hamkorlikda olib borasiz?	Barcha mashg‘ulotlarda-5 Ekologiya mashg‘ulotlarida-16 Sayr va ekologiya mshg‘ulotlarida – 4	Barcha mashg‘ulotlarda-20% Ekologiya mashg‘ulotlarida-64% Sayr va ekologiya mashg‘ulotlarida-16%
4	Har kunlik sayr vaqtida (tabiat qo‘ynida) bolalarga nimalarni o‘rgatasiz?	Ilk qadam mavzu doirasidagi bilimlar-17 Fasl, ob-havo, tabiat haqida-3 Tabiatni asrash, avaylash-5	Ilk qadam mavzu doirasidagi bilimlar-68% Fasl, ob-havo, tabiat haqida-12% Tabiatni asrash, avaylash-20%
5	MTTda ekologik madaniyatni oshiruvchi o‘quv materiallar mavjudmi?	Ha-0 Yoq-18 Juda kam-7	Ha-0% Yoq-72% Juda kam-28%

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, 1-so‘rovnoma savolida tashkilotdagi 25 nafar pedagog xodimlarning 15 nafari (60%) bolalar bilan ekologik sayrlar tashkillashtirib turishini, 10 nafari (40%) esa bolalar bilan sayrlarni ba’zan tashkillashtirishi aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkich maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning amaliy faoliyatda mavjudligi ko‘rsatdi, ammo barcha pedagoglar faoliyatida tizimli va muntazam tarzda yo‘lga qo‘yilmaganligi aniqlandi.

So‘rovnomaning 2-savolida maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishda 25 nafar pedagog xodimlarning 16 nafari (64%) an’anaviy metodlardan (kuzatish, suhbat, savol-javob) foydalanishi, 7 nafari (28%) innovatsion va kreativ (yangi va zamonaviy) metodlardan va 2

nafari (8%) metodikalardan foydalanmasligi aniqlandi. Natijalar maktabgacha ta’lim tashkilotida ekologik madaniyatni rivojlantirish jarayonida asosan an’anaviy metodlar foydalanishi hamda innovatsion va kreativ metodlardan foydalanish yetarli emasligi aniqlandi.

So‘rovnomaning 3-savolida bolalarning ekologik madaniyatini 5 nafar (20%) pedagog xodim barcha faoliyat jarayonlarda, 16 nafari (64%) ekologiya faoliyatlarda va 4 nafari (16%) sayr va ekologiya faoliyatlari jarayonida olib borilishi aniqlandi. Ushbu natijalar makabgacha ta’lim tashkilotida ekologik faoliyatlar boshqa ta’lim yo‘nalishlari bilan yetarli darajada integratsiyalanmaganligini ko‘rsatdi.

So‘rovnomaning 4-savolida har kunlik sayr vaqtida pedagog xodimlarning 17 nafari (68%) ilk qadam milliy o‘quv dasturida berilgan haftalik va oylik mavzu doirasida, 3 nafari (12%) fasllar, ob-havo, tashqi muhit haqida umumiy bilimlar, 5-nafari (20%) esa tabiatni asrash, avaylash, uni ehtiyot qilish, tabiatga g‘amxo‘rlik qilish kerakligi haqida bilimlar berib borishi aniqlandi. Mazkur natijalar sayr jarayonida ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir bilimlar, ekologik madaniyatning ajralmas qismi bo‘lgan tabiatga ma’suliyatli munosabatni tarbiyalash, amaliy ekologik faoliyatlarni shakllantirishni yanada kuchaytirish zarurligi aniqlandi.

So‘rovnomaning 5-savolida ekologik madaniyatni rivojlantiruvchi o‘quv materiallarning tashkilotdagi pedagog xodimlar tomonidan 18 nafari (72%) ilmiy adabiyotlar mavjud emasligini, 7 nafari (28%) kam ekanligi aniqlandi. Mazkur natija orqali tashkilotda ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun adabiyotlar, metodik qo‘llanma va materiallar zarurligi aniqlandi.

So‘rovnoma natijasida aniqlangan barcha muammolar ekologik madaniyatni rivojlantirishning mavjud holatini takomillashtirilgan qaratilgan ilmiy-amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘satadi.

Xulosa. Tadqiqot davomida o‘rganib tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ekologik ta’limni uzluksiz ta’limning barcha bo‘g‘inlarida joriy etilgani yurtimizda ekologik ta’limga, ekologik madaniyatni o‘rganishga katta ahamiyat berilganini ko‘rsatadi. Ilmiy adabiyotlar va sohaga doir ilmiy tadqiqot ishlari orqali maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga faqat nazariy bilim beribgina qolmay uni amaliy xatti-harakat bilan uzviy bog‘lash, bolalarni kundalik faoliyatida o‘rganganlarini namoyon bo‘lishi, amaliy faoliyatida va hayoti davomida ushbu ko‘nikmalar bilan mustahkamlanishi zarur.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tkazilgan so‘rovnomalar shuni ko‘rsatadiki, tashkilotda ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir faoliyat mavjudligi ko‘rsatadi, shu bilan birga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik ta’minot, zamonaviy yondashuvlar, ekologik mazmunni boshqa yo‘nalishlar bilan bog‘lash zaruratini ko‘rsatdi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra mazkur tashkilotda ekologik madaniyatni rivojlantirish uchun bir qancha tavsiyalar ishlab chiqildi:

- ✓ Ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarni muntazam va tizimli tarzda yo‘lga qo‘yish;
- ✓ Ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarda innovatsion va kreativ metodlardan va zamonaviy o‘qitish ta’lim tizimidan foydalanish;
- ✓ Ekologik madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarni faqat belgilangan tartibdagi ekologiya faoliyatlarida emas, balki ta’lim tarbiya jarayonidagi barcha faoliyatlarga qo‘shib integratsiya qilgan holda tashkil etish. Masalan, nutqni rivojlantirish faoliyatlarida tabiat mavzsidagi hikoyalar, ertaklar, turli xil didaktik o‘yinlar (“Suratga qarab davom ettir”, “Surat asosida hikoya tuz”), matematika va qurish yasash faoliyatlarida tabiat obyektlarini qurish, ularni sanash, tasviriy faoliyatlarda esa tabiat manzalarini chizish a boshqalar;
- ✓ Ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir faoliyatlarda tarbiyalanuvchilarga faqat umumiy ma’lumotlar beribgina qolmay, tabiatni asrash, unga g‘amxo‘rlik qilish haqida kengroq tushunchalar berish, tabiatga berilgan zarar ortida turli tabiiy ofatlar yuzaga kelishi, biz tabiatga qanday munosabatda bo‘lsak tabiat ham bizga shunday munosabatda bo‘lishi haqida kengroq ilmiy ma’lumotlar berish;
- ✓ Ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir metodik ta’minot, ilmiy adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, o‘quv qo‘llanmalarni keng joriy etishni tashkillashtirish;
- ✓ Tabiatni asrashga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatlarni muntazam tashkil etish.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi “2030- yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risidagi PF-5863-sonli Farmoni.-Toshkent, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabr sanasida “Respublika yashillik darajasini yanada oshirish, “yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari” to‘g‘risida PF-199 sonli Farmoni.-Toshkent, 2023.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 434-sonli Qarori.-Toshkent, 2019.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekardagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qarori.-Toshkent, 2020.

5. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2026-yil 17-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limning “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturining 3-nashrini tasdiqlash va ta’lim-tarbiya jarayoniga joriy etish to‘g‘risidagi 260-sonli buyrug‘i.-Toshkent, 2026.

6. Kamilova G.A. Maktabgacha yoshdagi bolalarda paremik janrlar vositasida ekologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik tizimini takomillashtirish.- Bux.: 2026.-5-6b.

7. Kubayeva M.B. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ekologik tarbiya berishda ta’limning vizual texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.-T.: 2023.-15b.

8. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika.-T.: Tafakkur, 2019. -301-309b.

9. Rahmonova M. Ekologik kompetensiya: mazmuni, tuzilishi, xususiyatlari. Экономика и социум.-5/(120)-1.2024.-5b.

10. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika.-T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013.-182-191b.

11. Umarova M.H. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda atrof-muhitga ma’suliyatli munosabatni shakllantirish metodikasi.-T.: 2007.-9b.

12. Xalilova M.R. Maktabgacha ta’lim muassasalari katta guruh yoshidagi bolalarda ekologik tushunchalarni shakllantirishning pedagogik asoslari. –T.: 2006.-15b.

13. Hurvalieva T.L. Maktabgacha yoshdagi bolalarni atrof-olam bilan tanishtirish metodikasini takomillashtirish.-T.: 2021.-13b.

14. https://urok.1sept.ru/article/.-M.: 2012.-2b.